Ma'rifat Yoshiyevna Umurova,

Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrasi o'qituvchisi,

m.y.umurova@buxdu.uz

O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARI ASOSIDA O‘QUVCHILARDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek xalq qo‘shiqlari asosida o‘quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Xalq og‘zaki ijodining ajralmas qismi bo‘lgan qo‘shiqlar yosh avlodni vatanparvarlik, milliy g‘urur, an’ana va urf-odatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Turli marosim va an’anaviy xalq qo‘shiqlari orqali o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada musiqa ta’limi jarayonida xalq qo‘shiqlaridan samarali foydalanish metodlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar

o‘zbek xalq qo‘shiqlari, milliy qadriyatlar, tarbiya, ma’naviy-axloqiy fazilatlar, musiqa ta’limi, vatanparvarlik, an’ana va urf-odatlar, folklor.

Аннотация

В данной статье раскрывается педагогическое значение формирования национальных ценностей у учащихся на основе узбекских народных песен. Народные песни как неотъемлемая часть устного народного творчества являются важным средством воспитания молодого поколения в духе патриотизма, национальной гордости и уважения к традициям и обычаям. Анализируются возможности развития духовно-нравственных качеств учащихся посредством различных обрядовых и традиционных народных песен. Также представлены эффективные методы использования народных песен в процессе музыкального образования.

Ключевые слова

узбекские народные песни, национальные ценности, воспитание, духовно-нравственные качества, музыкальное образование, патриотизм, традиции и обычаи, фольклор.

Annotation

This article highlights the pedagogical significance of forming national values in students based on Uzbek folk songs. Folk songs, as an integral part of oral folk art, serve as an important means of educating the younger generation in the spirit of patriotism, national pride, and respect for traditions and customs. The educational potential of various ritual and traditional folk songs in developing students’ moral and spiritual qualities is analyzed. The article also presents effective methods for using folk songs in the process of music education

Keywords

Uzbek folk songs, national values, education, moral and spiritual qualities, music education, patriotism, traditions and customs, folklore.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining barqaror taraqqiyoti va raqobatbardosh davlat sifatida shakllanishi bevosita ta’lim tizimining rivoji hamda inson kapitalining yuksalishi bilan chambarchas bog‘liqdir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, ta’lim sohasini modernizatsiya qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash, yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga qaratilgan strategik yo‘nalishlar davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylangan. Bu jarayonda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan konseptual g‘oyalar muhim nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Davlat rahbari o‘z nutq va ma’ruzalarida Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayoni avvalo zamonaviy bilim va kasb-hunarga ega, mustaqil fikrlaydigan, milliy o‘zligini anglagan, yuksak ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq ekanini alohida ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘qituvchi nufuzini oshirish hamda milliy merosni ta’lim mazmuniga chuqur singdirish dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya masalasi bugungi globallashuv sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot oqimining keskin ortishi, turli madaniy ta’sirlarning kuchayishi yoshlarning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda milliy madaniyat, tarixiy meros, urf-odat va an’analarni ilmiy asosda o‘rgatish hamda ularni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish zaruriy ehtiyojga aylanmoqda.

Xususan, xalq pedagogikasi tajribasidan foydalanish yosh avlodni tarbiyalashda samarali metodik manba bo‘lib xizmat qiladi. Xalq tomonidan asrlar davomida shakllantirilgan tarbiyaviy tajriba, og‘zaki ijod namunalari, marosim va an’analarda mujassam bo‘lgan ma’naviy qadriyatlar o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, estetik did va axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu merosni ilmiy jihatdan tizimlashtirish, pedagogik jarayonga moslashtirish va amaliyotga joriy etish zamonaviy ta’lim nazariyasining muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Shuningdek, musiqa va san’at vositasida tarbiya berish masalasi ham alohida e’tiborga loyiqdir. Milliy musiqa merosi, xalq kuy-qo‘shiqlari va an’anaviy ijrochilik namunalaridan foydalanish o‘quvchilarning nafaqat estetik didini, balki ma’naviy-ruhiy olamini boyitadi, ularni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalaydi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, san’at orqali berilgan tarbiyaviy ta’sir o‘quvchi shaxsining hissiy-intellektual rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi va barqaror axloqiy pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida milliy pedagogik meros va ilg‘or innovatsion yondashuvlarning uyg‘unligi asosida tashkil etilgan tarbiya jarayoni Yangi O‘zbekistonning ma’naviy barkamol, intellektual salohiyatli avlodini voyaga yetkazishning muhim omili hisoblanadi. Shu bois ta’lim jarayonida milliy qadriyatlar, xalq pedagogikasi va san’at vositalaridan kompleks va tizimli ravishda foydalanish ilmiy-amaliy zarurat sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Milliy mustaqillikka erishilgach, iste’dod buloqlarining ko‘zi ochildi va ma’naviyatimizning bebaho boyligi bo‘lib qoladigan noyob ilmiy asarlar chop etila boshlandi. Sharq mutafakkirlari asarlarining keng ko‘lamda tatbiq etilishi, yoshlar ta’lim-tarbiyasiga oid adabiy meroslarimizning nashr etilib, xalqqa yetkazilayotgani quvonarli holdir. Bu asarlarning chop etilishi ta’lim-tarbiya

taraqqiyoti uchun ham, milliy maktab yaratishda ham, insonni yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda musiqa pedagogikasini o‘rganish hamda o‘rganilgan ishlar natijalarini respublikaning ta'lim-tarbiya maskanlarida joriy etish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. A.K. Munavvarov, U. Maxkamov, J. Hasanboev, O. Musurmonova, M. Kuranov, O. Turaeva, S. Temirova, S. Xasanov, R.A. Mavlonova, M. Murodov, T.S. Usmonxo‘jaev, M. Inomova, M. Ochilov va boshqa pedagog olimlarning ishlarida o‘tmish avlodlarimiz merosida mujassamlashgan pedagogik fikrlar, ulug‘ mutafakkirlarning musiqaga oid asarlari chuqur tadqiq qilingan.

Musiqa pedagogikasi sohasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Nomzodlik dissertatsiyalarida xalq qo‘shiqlari vositasida o‘quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishning ayrim qirralari haqida fikrlar bildirilgan. Ayniqsa, N. Tolliboev va X. Bobomirzaevlarning ilmiy ishlarida ushbu muammoning ayrim jihatlari ochib berilgan.

Pedagog olimlar K. Xoshimov va Safo Ochilov tuzgan “O‘zbek pedagogikasi antologiyasi”, shuningdek S. Nishonova, M. Inomova, R. Xasanovlar tomonidan yaratilgan “Pedagogika tarixi” kitoblarida xalqimizning qadimgi zamonlardan to hozirgi kungacha yaratgan pedagogik fikrlari, xalq pedagogikasining xususiyatlari hamda ko‘plab ulug‘ mutafakkirlarning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari yoritilgan.

M. Toshmatovning “Dirijyorlik” darsligi musiqa yo‘liga qadam qo‘ygan talabalarga dirijyorlik san'ati sirlarini o‘rgatishga qaratilgan bo‘lib, unda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni egallashga katta ahamiyat berilgan.

B.O. Bodirovning “O‘zbek xalq pedagogikasining shakllanishi” kitobi ilmiy va amaliy ahamiyatga molikdir. Unda Navro‘z milliy xalq bayrami va boshqa an'analarning tarbiyaviy ahamiyati ilmiy tahlil qilinib, amaliy tavsiyalar berilgan.

Olimlarimiz tomonidan musiqa pedagogikasini o‘rganish borasida muhim ilmiy va metodik tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, xalqimizning an'ana va urf-odatlari asosida o‘quvchilarni ma'naviy-estetik ruhda tarbiyalash hamda bu borada xalq pedagogikasini zamon talablari asosida yangicha fikr va talqin bilan boyitish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Chunki milliy pedagogika va umumta'lim maktablarida milliylikni singdirish, mustaqillik ruhining insonlar qalbida uyg‘onishini ta'minlash muammosi bo‘yicha keng qamrovli ishlar hali to‘liq darajada yo‘lga qo‘yilmagan.

Umuman, musiqiy an'analar va urf-odatlar asosida o‘quvchilarni ma'naviy-estetik ruhda tarbiyalash jarayonida bolalarning yoshi, qobiliyati va fikrlash darajasiga qarab, ma'lum tamoyillar asosida ish olib borish lozim.

Bugungi kunda ushbu muammolarni bartaraf etish uchun musiqa pedagogikasini chuqur o‘rganish, uni zamon talablari nuqtai nazaridan qayta ishlab chiqish hamda boshlang‘ich ta'lim maktablarining ta'lim-tarbiyaviy ishlarida foydalanish uchun ko‘plab o‘quv-metodik qo‘llanmalar va yo‘riqnomalar yaratish zarur.

Musiqa pedagogikasining asosiy manbai bo‘lgan an'ana va ma'rifiy g‘oyalarni o‘rganish hamda ularni umumta'lim maktablarida joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq pedagogikasi deganda xalq og‘zaki ijodining barcha janrlarida aks ettirilgan tarbiya borasidagi qarashlar, g‘oyalar, rasm-rusumlar, urf-odatlar hamda an'analar yig‘indisi tushuniladi.

Ilm o‘chog‘i hisoblangan maktablarda milliy ta’lim-tarbiya amalga oshiriladi. Milliy ta’lim-tarbiya esa, o‘z navbatida, xalq an’analari, urf-odatlari, g‘oyalari va udumlariga tayanadi.

Xalq an’ana va urf-odatlaridan o‘quv-tarbiya jarayonida samarali foydalanish masalasi pedagog olimlar diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. An’ana va urf-odatlarning mazmun-mohiyatini o‘quvchilarga chuqur tushuntirish, ularning tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib berish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim shartidir. Musiqa pedagogikasida mujassamlashgan milliy an’analar va xalq og‘zaki ijodi namunalari yosh avlodni ma’naviy-axloqiy hamda estetik ruhda tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy manbalarda “urf” va “an’ana” tushunchalari jamiyat tomonidan qabul qilingan, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan rasm-rusum, odat, axloq me’yorlari hamda ijtimoiy qadriyatlar sifatida talqin etiladi. Ular ijtimoiy madaniyatning amaliy ifodasi bo‘lib, muayyan xatti-harakatlarning takrorlanishi va jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi orqali mustahkamlanadi. An’ana va urf-odatlar qanchalik hayotiy va xalqchil bo‘lsa, ular shunchalik tez singadi va uzoq yashaydi.

Shaxsning shakllanishida an’ana va urf-odatlar muhim omil hisoblanadi. Ularni oila, mahalla va maktab hamkorligida o‘quvchi ongiga singdirish orqali nafaqat ma’naviy-axloqiy fazilatlar, balki umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usi ham shakllanadi. Xalq qo‘shiqlari, marosimlar va musiqiy an’analar esa bu jarayonda samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi.

Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida musiqiy an’analarda mujassam bo‘lgan ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish va ta’lim tizimiga izchil joriy etish zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma’naviy-estetik ruhda tarbiyalashda an’ana va urf-odatlarning ijobiy jihatlarini ilmiy asosda tanlab olish, ularni bolalarning yosh xususiyatlari va psixologik imkoniyatlariga mos ravishda qo‘llash muhimdir.

Xalqimizning boy hayotiy tajribasi asosida shakllangan an’ana va urf-odatlar milliy qadriyatlarning mustahkam poydevorini tashkil etadi. Ota-onaga hurmat, kattalarga ehtirom, kichiklarga mehr-shafqat, mehnatsevarlik, ilmga intilish, vatanparvarlik, oila muqaddasligini qadrlash kabi fazilatlar ana shu qadriyatlar tizimining ajralmas qismidir. Ularni yosh avlod ongiga singdirish orqali jamiyatning ma’naviy barkamolligiga erishish mumkin.

Qadimdan bolalarni ma’naviy-estetik ruhda tarbiyalashda oila yetakchi rol o‘ynab kelgan. Bola mehnat muhiti va ijtimoiy tajribani avvalo oilada o‘zlashtiradi. Mehnatning qadr-qimmati, mas’uliyat, intizom, tejamkorlik kabi fazilatlar erta yoshdan shakllanadi. Maktab esa bu jarayonni tizimli va maqsadli ravishda davom ettiradi. Oila va maktab hamkorligi tarbiyaviy samaradorlikning asosiy omillaridan biridir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat tarbiyasining ahamiyati yanada ortmoqda. Jamiyatga mehnatsevar, tashabbuskor, malakali va mas’uliyatli yoshlar zarur. Shu bois ma’naviy-axloqiy tarbiyani milliy an’ana va urf-odatlar asosida tashkil etish, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Umuman olganda, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining boy ilmiy-madaniy merosi, xalq ogʻzaki ijodi va musiqiy anʼanalarida mujassam boʻlgan tarbiyaviy gʻoyalar oʻquvchilarni maʼnaviy-estetik ruhda kamol toptirish uchun mustahkam nazariy va amaliy asos boʻlib xizmat qiladi. Bu merosni chuqur oʻrganish va taʼlim jarayoniga samarali tatbiq etish bugungi pedagogika oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Oʻzbek olimasi O. U. Xasanboeva taʼkidlaganidek, “Xalqimiz azaldan xalq qoʻshiqlarini ulugʻlagan va maʼnaviy-estetik fazilatlarni rivojlantirish insonning muhim ijobiy xususiyatlaridan biridir.” Pedagog olim U. Maxkamov maʼnaviy-estetikani “insonning butun hayoti va faoliyatida amalga oshadigan jarayon” sifatida izohlaydi. Shu bilan birga, M. Inomova bu tushunchaga izoh berib, yosh avlodda mehnatsevarlikni shakllantirish insonning aqliy yetukligi, jismoniy salomatligi, axloqiy pokligi va nafislik xususiyatlarini rivojlantirish bilan chambarchas bogʻliqligini qayd etadi.

Maʼnaviy estetika insonning tiynati, axloqiy sifati, mehnatga boʻlgan subʼektiv-ijodiy munosabat, tashabbuskorlik, xalollik, poklik va mehnat natijasidan qanoat his qilish kabi sifatlarni oʻz ichiga oladi. Bu jarayon shaxsning har tomonlama kamol topishida yetakchi omil boʻlib xizmat qiladi. Shu bois, haqiqiy maʼnaviy estetika insonda barcha axloqiy fazilatlarni shakllantirish va komil shaxs boʻlishni taʼminlaydi.

Tarbiyaviy jarayon maʼlum pedagogik tizim orqali amalga oshiriladi va natijada tarbiyalanuvchida maʼnaviy-estetik fazilatlar shakllanadi. Ushbu tizimning asosiy elementi mehnat faolligi va vijdonlilik kabi shaxsiy sifatlar boʻlib, ular oʻquvchida maʼnaviy-axloqiy poydevor yaratadi. Oʻqituvchi taʼlim-tarbiyaning maqsad va mazmunini belgilagach, bevosita mehnat jarayonini tashkil etadi; aynan shu jarayon oʻquvchilarda maʼnaviy-estetik fazilatlarning shakllanishida markaziy ahamiyat kasb etadi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida maʼnaviy-estetik fazilatlar shakllanayotganda ular qalbida maʼnaviy-axloqiy tushunchalar rivojlanadi. Xalqimizning anʼana va urf-odatlariga asoslangan mehnat jarayoni oʻquvchilarda tejamkorlik, halollik, masʼuliyat va isrof qilmaslik kabi odatlarni shakllantiradi.

Pedagogik tajribalar shuni koʻrsatadiki, insonning jismoniy salomatligi, quvvati va intizomi musiqa anʼanalari va xalq urf-odatlari bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, ularning tarbiyaning ajralmas qismiga aylanishi muhimdir. Shu sababli, asrlar davomida shakllangan xalq anʼanalari va urf-odatlari kichik yoshdagi oʻquvchilarda maʼnaviy-estetik ruhni singdirish vositasi sifatida keng qoʻllaniladi.

Oʻquvchilarni zamon talablariga mos ravishda tarbiyalashda quyidagi didaktik tamoyillarga eʼtibor qaratish lozim:

1. Taʼlim-tarbiyaning bosh maqsadi — oʻquvchilarni xalq qoʻshiqlari, tajribalari, urf-odatlari va anʼanalari asosida kamolotga yetkazish, mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish, yuqori axloqiy va maʼnaviy dunyoga ega, sogʻlom va pok avlod tarbiyalash.
2. Sanʼat darslarida amaliy tadbiq — xalq pedagogikasidagi urf-odatlardan foydalanib, oʻquvchilarning koʻnikma, malaka va qobiliyatlarini rivojlantirish.

Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar va maktablardagi kuzatishlar shuni koʻrsatadiki, xalqimizning musiqa anʼanalari va urf-odatlari oʻquvchining axloqiy shakllanishida, vatanparvarlik ruhini rivojlantirishda, mustaqillikni qadrlashda va kelajakni yaratishda cheksiz tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Yo‘ldosheva S. Xalq urf-odatlari va an’analari. –Toshkent: Ijod dunyosi. 2003.
2. Mirzayev T., Safarov O., O‘rayeva D. O‘zbek xalq ijodi xrestomatiyasi.
– Toshkent, 2008.
3. Абдуллаев К. Ф., Умурова М. Ё. Педагогические особенности урока пения в начальной школе //Central asian journal of mathematical theory and computer sciences. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 66-69.
4. Жураев Б. Т., Абдурахмонова Д. У. Эстетическое развитие школьников средствами узбекского музыкального фольклора //Вестник Чувашского государственного института культуры и искусств. – 2019. – №. 14. – С. 77.
5. Tojiyevich J. B. The development of the art of music in the period of the somanids era //SHOKH LIBRARY. – 2025. – Т. 1. – №. 12.
6. Umurova M. Y. Practical Possibilities of Spiritual-Moral Formation through Folk Songs //Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN. – Т. 2795. – №. 546X. – С. 55.
7. Umurova M. Y. Ideological and artistic features of folk singing //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 77-80.
8. Umurova M. Y. Formation of Patriotic Feeling in Youth Students through Folk Songs //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 99-103.
9. Умурова М.Ё. Возможности совершенствования процесса обучения узбекскому фольклорному творчеству. Среднее профессиональное образование СПО 5(345)`2024
10. Umurova M. Y. The importance of using pedagogical technologies in special educational schools //Vestniknaukiiobrazovaniya.–2020. – 2020. – С. 22-2. 8. Umurova M. Y. Oilaviy marosim qo‘shiqlarini o‘rganishni to‘garak va milliy bayramlar asosida amalga oshirish //Экономика и социум. – 2023. – №. 3-2 (106). – С. 317-321.